

TA'LIMDAGI TENGLIK VA IMKONIYATLAR: O'ZBEKISTONDA BOLA HUQUQLARINI TA'MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

Dadajonova Feruza Abduazizovna

Toshkent viloyati pedagogik mahorat
markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar
metodikasi" Kafedra katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'limdagi tenglik va bola huquqlarini ta'minlash masalasi huquqiy, ijtimoiy hamda institutsional yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta'limdagi tenglikning konstitutsiyaviy asoslari, milliy qonunchilikda mustahkamlangan tamoyillar, amaliyotda uchrayotgan hududiy, ijtimoiy, raqamli va inklyuziv muammolar yoritilgan. Shuningdek, Xalqaro tashkilotlar tavsiyalari hamda O'zbekiston tajribasi asosida ta'limdagi tenglikni mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar (o'zbek): ta'limdagi tenglik, bola huquqlari, inklyuziv ta'lim, gender tengligi, raqamli tengsizlik, ta'lim sifati, ijtimoiy adolat, Konstitutsiya, milliy qonunchilik.

ANNOTATION

This article analyzes the issues of ensuring equality in education and protecting children's rights in the Republic of Uzbekistan based on legal, social, and institutional approaches. The study highlights the constitutional foundations of educational equality, the principles закрепленные in national legislation, and the regional, social, digital, and inclusive challenges encountered in practice. In addition, priority directions for strengthening equality in education are substantiated based on the recommendations of international organizations and the experience of Uzbekistan.

Keywords (English): educational equality, children's rights, inclusive education, gender equality, digital inequality, quality of education, social justice, Constitution, national legislation.

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе правового, социального и институционального подходов проводится анализ вопросов обеспечения равенства в образовании и защиты прав ребёнка в Республике Узбекистан. В исследовании освещаются конституционные основы равенства в образовании, принципы, закреплённые в национальном законодательстве, а также региональные, социальные, цифровые и инклюзивные проблемы, встречающиеся на практике. Также на основе рекомендаций международных организаций и опыта Узбекистана обоснованы приоритетные направления по укреплению равенства в сфере образования.

Ключевые слова (русский): равенство в образовании, права ребёнка, инклюзивное образование, гендерное равенство, цифровое неравенство, качество образования, социальная справедливость, Конституция, национальное законодательство.

KIRISH

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biri ta'lim tizimida adolat va tenglik tamoyillarining mustahkam qaror topgani bilan belgilanadi. Barcha bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish har qanday davlatning ijtimoiy barqarorligi va intellektual salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan keng

qamrovli ta'lim islohotlari sharoitida bola huquqlarining to'laqonli ta'minlanishi ustuvor davlat siyosatiga aylangan. Xalqaro huquq normalarida, xususan, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida bolalarning ta'lim sohasidagi huquqlari alohida e'tirof etilib, unda ta'limning barcha uchun ochiqligi, bepulligi, sifatligi, kamsitishning mutlaqo man etilishi hamda bolaning o'z fikrini erkin bildirish huquqi kafolatlangan. Ushbu Konvensiyaga qo'shilgan O'zbekiston milliy huquq tizimida ham bola huquqlarini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga olgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yildagi yangi tahriri ta'lim sohasidagi huquqlarni yanada aniq va mustahkam tarzda belgilab berdi. Unda har bir shaxsning sifatli ta'lim olish huquqi⁵ e'tirof etilib, davlat zimmasiga ta'lim jarayonida teng sharoitlarni yaratish majburiyati yuklatilgan. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'limning uzluksizligi, umumiy ochiqligi, hududlar bo'yicha davlat ta'lim standartlarining bir xil qo'llanishi, shuningdek, shaxsni ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy holati, jinsi yoki irqiy mansubligiga ko'ra kamsitishga yo'l qo'yilmasligi asosiy⁶ tamoyillar sifatida belgilangan. Bundan tashqari, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda 10-moddasi- *bolalarning ta'lim olish⁷ huquqi* davlat tomonidan himoyalaniishi, **13-modda- ta'limda tenglik va kamsitilmaslik** ta'lim muassasalarida tenglik va adolatli muhit shakllantirilishi zarurligi mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur huquqiy hujjatlar ta'limdagi tenglikni O'zbekistonda faqat ijtimoiy ehtiyoj sifatidagina emas, balki konstitutsiyaviy majburiyat darajasida belgilaydi. Bugungi kunda **ta'lim tizimida mavjud muammolar va nomutanosibliklar** shuni ko'rsatadiki, amaldagi huquqiy normalar bo'lsada, ta'lim tizimida tenglikni to'liq ta'minlash yo'lida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, hududlar kesimida ta'lim sifati o'rtasida tafovutlar mavjudligi, qishloq maktablarining moddiy-texnik bazasi yetarli darajada shakllanmaganligi, malakali pedagog kadrlar yetishmovchiligi hamon dolzarbligicha qolmoqda. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar bilan ta'minlanish darajasining hududlar bo'yicha notekisligi, imkoniyati cheklangan bolalar uchun zarur sharoitlarning yetarli darajada yaratilmaganligi ham bola huquqlarining amalda to'liq ta'minlanishiga jiddiy to'sqinlik qilmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi bolalarning ta'lim imkoniyatlari shahar muhitiga nisbatan cheklanganligi tenglik tamoyiliga zid holat sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish yo'nalishida muhim qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da, bu borada yechimini kutayotgan muammolar mavjud. "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonun imkoniyati cheklangan bolalarning umumiy ta'lim muassasalarida tahsil olishini nazarda tutadi. Biroq amaliyotda maxsus mutaxassislar yetishmasligi, ta'lim muassasalarining moslashtirilmaganligi va maxsus o'quv vositalarining kamligi sababli inklyuziv ta'lim to'liq joriy etilmagan. Ta'lim tizimida adolatni ta'minlashning yana bir muhim yo'nalishi gender tengligi bilan bog'liqdir.

O'zbekistonda bu borada huquqiy asos yaratilganiga qaramay, ayrim hududlarda qiz bolalarning ta'lim jarayonidan erta chetlanishi bilan bog'liq holatlar uchrab turibdi. Bu holat jamiyatdagi an'anaviy qarashlar bilan bog'liq bo'lib, Konstitutsiyada belgilangan tenglik prinsiplari bilan mos kelmaydi.

Shuni ta'kidlash joizki masofaviy ta'lim tizimi joriy etilgan COVID-19 pandemiyasi davrida raqamli tengsizlik muammosi yanada oydinlashdi. Internet tarmog'i va elektron qurilmalarning yetishmasligi sababli minglab o'quvchilar ta'lim jarayonidan chetda qoldi. "Raqamli O'zbekiston –

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 50-modda, 2023 yilgi tahrir.

⁶ O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 10-modda.

⁷ O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 13-modda.

2030” strategiyasi doirasida bu muammoni bartaraf etish yo‘lida muhim ishlar amalga oshirilmoqda, biroq hududlar o‘rtasidagi texnologik farqlar hanzuz saqlanib qolmoqda.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’limdagi tenglikni ta’minlash uchun boshlang‘ich ta’limning sifati va qamrovini oshirish, inklyuziv ta’limni rivojlantirish, pedagoglar malakasini muntazam oshirib borish, raqamli resurslardan teng foydalanish imkonini yaratish hamda kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda bu yo‘nalishda tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq barqaror va kompleks natijalarga erishish uchun moliyaviy resurslar samaradorligini oshirish, pedagogik kadrlar salohiyatini mustahkamlash va monitoring mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Umuman olganda, ta’limdagi tenglik bola huquqlarining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiya, milliy qonunchilik hamda xalqaro majburiyatlar bilan kafolatlangan. Har bir bola qayerda tug‘ilganidan, ijtimoiy holatidan, sog‘lig‘idan qat’i nazar, sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishi shart. Ta’limdagi tenglikni ta’minlash mamlakatda ijtimoiy adolat, barqaror taraqqiyot va demokratik jamiyat shakllanishining muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 13-modda. O‘zbekiston Respublikasi “Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun (2021).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish strategiyasi” PQ-187-son qarori.
3. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun (2019).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori.
5. United Nations. *Convention on the Rights of the Child*. — New York, 1989.
6. UNESCO. *Global Education Monitoring Report*. — Paris, 2022.
7. UNICEF. *The State of the World’s Children*. — New York, 2023.
8. OECD. *Equity in Education: Breaking Down Barriers to Social Mobility*. — Paris: OECD Publishing, 2020.
9. World Bank. *World Development Report 2021: Data for Better Lives*. — Washington, DC, 2021.
10. Ainscow, M. *Struggling for Equity in Education*. — London: Routledge, 2020.